



THE PROBLEM OF FORMING CULTURAL DIVERSITY AND NEW IDENTITY IN THE CONTEXT OF THE GLOBAL MEDIA SPACE

Manzura Khurramovna Radjabova

Assistant

Uzbekistan–Finland Pedagogical Institute

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: global media space, cultural diversity, identity, globalization, digital culture, communication, social consciousness.

Received: 20.10.25

Accepted: 21.10.25

Published: 22.10.25

Abstract: The article explores the issue of cultural diversity and the formation of new identities in the context of the global media space. It examines how global information flows, transnational communication systems, and digital culture influence social consciousness and identity construction. The study emphasizes that the media environment fosters intercultural interaction, integration, and transformation, leading to the emergence of hybrid or fluid identities. At the same time, it highlights potential challenges such as the erosion of national identity and the intensification of cultural contradictions. The paper offers philosophical and sociological insights into preserving cultural diversity and promoting constructive identity formation in the age of globalization.

GLOBAL MEDIAMAKON SHAROITIDA MADANIY XILMA-XILLIK VA YANGI IDENTIKLIKNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI

Manzura Xurramovna Radjabova

Assistenti

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika intituti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: global mediamakon, madaniy xilma-xillik, identiklik, globallashuv, raqamli madaniyat, kommunikatsiya, ijtimoiy ong.

Annotatsiya: Mazkur maqolada global mediamakon sharoitida madaniy xilma-xillikning saqlanishi va yangi identiklikni shakllantirish jarayonlari tahlil qilinadi. Maqolada global axborot oqimlari, transmilliy

kommunikatsiya vositalari hamda raqamli madaniyatning ijtimoiy ong va identiklik tizimiga ta'siri yoritilgan. Mediamakon milliy madaniyatlar o'rtasida o'zaro muloqot, integratsiya va transformatsiya jarayonlarini kuchaytirgani holda, identiklikning yangi shakllarini yuzaga keltirayotgani ta'kidlanadi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalarining globallashuvi shaxsiy va kollektiv o'zlikni anglash, milliy qadriyatlar va global madaniyat o'rtasidagi ziddiyatlarni chuqurlashtirishi mumkinligi qayd etiladi. Maqolada madaniy xilma-xillikni asrab-avaylash, yangi identiklikni konstruktiv yo'nalishda rivojlantirish bo'yicha falsafiy va sotsiologik yondashuvlar asosida xulosalar berilgan.

ПРОБЛЕМА ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРНОГО МНОГООБРАЗИЯ И НОВОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОГО МЕДИАПРОСТРАНСТВА

Манзура Хуррамовна Раджабова

Ассистент

Узбекско-Финский педагогический институт

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: медиапространство, многообразие, глобализация, цифровая коммуникация, социальное сознание.	глобальное культурное многообразие, идентичность, культура.	Аннотация: В статье рассматриваются проблемы формирования новой идентичности и сохранения культурного многообразия в условиях глобального медиапространства. Автор анализирует влияние глобальных информационных потоков, транснациональных коммуникационных систем и цифровой культуры на социальное сознание и идентичность личности. Подчеркивается, что медиапространство усиливает процессы межкультурного взаимодействия и интеграции, формируя новые модели идентичности. Одновременно отмечаются риски утраты национальной самобытности и усиления культурных противоречий. В работе представлены философские и социологические подходы к сохранению культурного многообразия и гармоничному развитию новой идентичности в эпоху глобализации.
---	---	---

Kirish. Globallashuv jarayonlari insoniyat hayotining barcha sohalarini, xususan, madaniyat va kommunikatsiya tizimlarini chuqur o'zgartirmoqda. Ayniqsa, global mediamakonning kengayishi natijasida dunyo xalqlari o'rtasidagi axborot almashinuvi, madaniy aloqalar va ijtimoiy ongning shakllanish mexanizmlari tubdan yangilandi. Bugungi kunda mediamakon nafaqat ma'lumot tarqatish vositasi, balki identiklik, madaniy o'zlik va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiruvchi kuchli falsafiy-madaniy muhit sifatida qaralmoqda. Shu sababli, madaniy xilma-xillikni saqlab qolish va yangi identiklik shakllanishi jarayonini tahlil qilish global kommunikatsiya davrining eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Global mediamakonning o'ziga xos xususiyati shundaki, u turli madaniyatlar, qadriyat tizimlari va dunyoqarashlarning o'zaro to'qnashuvi, sintezi hamda transformatsiyasi uchun ochiq maydonni yaratadi. Mediatexnologiyalar orqali yaratilayotgan virtual muhitda madaniy obrazlar, ramzlar, diskurslar va estetik kodlar tez sur'atda global miqyosda tarqalmoqda. Biroq bu jarayon bir tomondan madaniy integratsiyani kuchaytirs, boshqa tomondan, milliy o'zlikning zaiflashishi, madaniy unifikatsiya va identiklik inqiroziga olib kelmoqda. Shu bois, global kommunikatsiya sharoitida madaniy xilma-xillikni saqlash bilan birga, zamonaviy global identiklikni shakllantirish masalasi falsafiy tahlilni talab etadi.

Yangi identiklik masalasi global axborot tizimi orqali shakllanayotgan madaniyatlararo muloqotning markazida turadi. Bu jarayon shaxs va jamiyatning o'z-o'zini anglash, "biz" va "ular" o'rtasidagi chegaralarning qayta belgilanishi, universal va lokal qadriyatlarning o'zaro uyg'unlashuvi orqali kechadi. Mediamakon bu jarayonning asosiy maydoni sifatida, identiklikni ramzlar, belgilar, diskurslar va virtual tajribalar orqali konstruksiya qiladi. Natijada inson o'z madaniy ildizlariga tayanib, shu bilan birga global axborot oqimida o'zini qayta angalay boshlaydi. Falsafiy nuqtai nazardan, global mediamakon sharoitida identiklik shakllanishi murakkab dialektik jarayon bo'lib, unda milliy va global qadriyatlar o'zaro sintez holatida namoyon bo'ladi. Shu bois, global mediamakon nafaqat madaniy tafovutlarni yengillashtiruvchi vosita, balki yangi madaniy va axloqiy paradigmalarning shakllanish maydonidir. Bugungi kunda mediamakon orqali yaratilayotgan "global madaniyat" g'oyasi insoniyatni yagona kommunikativ maydonda birlashtirayotgan bo'lsa-da, shu bilan birga, mahalliy madaniyatlar, milliy o'zlik va an'anaviy qadriyatlarning saqlanishiga ham yangi yondashuvni talab etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Global mediamakon va uning madaniyatga ta'siri masalasi zamonaviy falsafiy, sotsiologik va madaniyatshunoslik tadqiqotlarida keng yoritilgan. Bu borada A. Toffler, M. McLuhan, Z. Bauman, E. Giddens, U. Bek kabi tadqiqotchilarning asarlari global kommunikatsiya jarayonlarining inson tafakkuri, madaniy identiklik va ijtimoiy ongga ta'sirini chuqur tahlil qiladi. M. McLuhan o'zining mashhur "Global qishloq" konsepsiyasida

mediatexnologiyalarni insoniyatni yagona kommunikativ makonga birlashtiruvchi kuch sifatida talqin qilib, mediamakonni yangi turdagi madaniy mavjudlik shakli sifatida baholaydi. Shu bilan birga, uning fikricha, bu global muhitda madaniy chegaralar tobora shaffoflashib, milliy o'zlikni saqlash mexanizmlari murakkablashadi.

A. Toffler o'zining "Uchinchi to'lqin" asarida texnologik taraqqiyot, axborot almashinuvi va ijtimoiy dinamikani yangi sivilizatsion bosqich sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, media global jarayonlarning bosh omiliga aylangan, axborot esa ijtimoiy ongni shakllantiruvchi asosiy resursga aylangan. Z. Baumannning "Suyuq zamon" (Liquid Modernity) konsepsiyasi esa global davrda identiklikning beqarorligi, o'zgaruvchanligi va kontekstual tabiati haqida yangi falsafiy tushunchani ilgari suradi. Bauman fikricha, zamonaviy inson o'zini doimiy axborot oqimi, mediamuhit va madaniy xilma-xillik o'rtasida qayta yaratib boradi.

E. Giddensning "O'zlikni refleksiv shakllantirish" g'oyasi ham ushbu muammoning falsafiy asoslarini ochib beradi. U global kommunikatsiya va axborot texnologiyalari insonning o'zligini shakllantirish jarayonini tashqi ijtimoiy omillar bilan yanada mustahkam bog'laganini ta'kidlaydi. Shaxs endilikda o'z identikligini milliy yoki geografik chegaralar orqali emas, balki axborot oqimlari, media obrazlar va global madaniy diskurslar orqali belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, mediamakon o'zlikni konstruksiya qiluvchi asosiy falsafiy maydonga aylanadi.

Postmodernizm falsafasining vakillari — J. Derrida, J.-F. Lyotar, M. Fuko va boshqalar — global mediamakonni ma'nolar, ramzlar va diskurslar o'rtasidagi cheksiz o'zaro o'yin sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, global kommunikatsiya sharoitida "haqiqat" va "identiklik" tushunchalari nisbiy xarakter kasb etadi, ularning mazmuni media diskurslari orqali qayta ishlab chiqiladi. Ayniqsa, Lyotar "postmodern sharoitda" bilim va axborot hokimiyatining ramzga aylanishini ta'kidlab, mediamakonni yangi ijtimoiy qudrat markazi sifatida baholaydi.

Madaniy xilma-xillik va global identiklikning falsafiy asoslari M. Nussbaum, C. Taylor va A. Appadurai kabi g'arb olimlarining ishlarida ham chuqur tahlil qilingan. Ular madaniyatning globallasuvi jarayonida "kosmopolit etikasi" g'oyasini ilgari surib, global birdamlik va mahalliy o'zlik o'rtasida uyg'unlikni topish zarurligini ta'kidlaydilar. Appadurai o'zining "Modernity at Large" asarida mediamakonni "madaniy oqimlar" (cultural flows) tizimi sifatida izohlab, global madaniy muhitni yangi identiklik shakllanishining manbai sifatida baholaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, global mediamakonning falsafiy mohiyati ikki asosiy yo'nalishda talqin qilinadi: birinchisi, u madaniyatlararo integratsiyani kuchaytiruvchi ijobiy omil sifatida; ikkinchisi esa, madaniy birxillikka olib keluvchi xavf sifatida. Zamonaviy falsafiy fikr bu ikki qutb o'rtasida muvozanat izlaydi — ya'ni, global kommunikatsiya sharoitida inson o'z o'zligini yo'qotmasdan, balki uni yangi shaklda qayta yaratishi mumkinligi g'oyasini ilgari

suradi. Shu bois, mavjud tadqiqotlar global mediamakonni faqat texnologik hodisa sifatida emas, balki identiklik va madaniyatni qayta ishlab chiqayotgan ramziy-falsafiy makon sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Global mediamakonning kengayishi inson tafakkuri, madaniyat va ijtimoiy ongda chuqur o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, media axborotning oddiy vositasi emas, balki yangi madaniy kodlar, ramzlar va identiklik modellarini shakllantiruvchi falsafiy maydondir. Ayniqsa, mediatexnologiyalar orqali madaniyatlar o'rtasidagi chegaralar shaffoflashib, global va lokal qadriyatlar o'zaro ta'sirga kirishmoqda. Bu jarayon o'z navbatida yangi "gibrid" identiklik shakllarining paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Shaxs endilikda o'zligini faqat milliy madaniyat doirasida emas, balki global axborot oqimi, virtual muhit va ko'p qatlamli madaniy kontekstlar orqali anglay boshladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, global mediamakon madaniyatlararo muloqotning asosiy maydoniga aylangan. U orqali turli xalqlarning madaniy tajribalari, estetik qadriyatlari va dunyoqarashlari o'zaro muloqotga kirishmoqda. Biroq bu integratsiya ikki yoqlama tusga ega: bir tomondan u madaniy o'zaro tushunishni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, ma'naviy homogenlashuv xavfini keltirib chiqarmoqda. Natijada madaniy xilma-xillikni saqlash va global o'zlikni shakllantirish o'rtasidagi dialektik muvozanat masalasi dolzarb falsafiy muammoga aylangan. Global mediamakonning falsafiy tahlili shuni ko'rsatadiki, yangi identiklik modeli o'zida ikki asosiy tamoyilni mujassamlashtiradi: o'zlikni saqlash va ochiqlik. O'zlikni saqlash tamoyili insonning tarixiy-madaniy ildizlari, milliy xotira va an'anaviy qadriyatlarga tayanishini bildiradi. Ochiqlik esa global kommunikatsiyaga moslashish, turli madaniy tizimlar bilan hamkorlik qilish va yangi ma'naviy ufqlarni qabul qilishga tayyorlikni anglatadi. Bu ikki tamoyilning uyg'unligi yangi global identiklikning falsafiy asosi sifatida shakllanmoqda. O'tkazilgan tahlillar global mediamakonning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, uning muammoli tomonlarini ham ochib berdi. Axborot oqimining haddan ziyod ko'pligi, madaniy ramzlarning soddalashuvi, iste'molchilik qadriyatlarining ustuvorligi natijasida insonning ichki ma'naviy dunyosi ma'lum darajada sathiydashmoqda. Mediamakon inson ongiga estetik va psixologik bosim o'tkazib, shaxsni o'z fikrini mustaqil shakllantirishdan uzoqlashtiruvchi omilga ham aylanishi mumkin. Shu bois global mediamakonni faqat ijtimoiy hodisa emas, balki falsafiy-madaniy fenomen sifatida tahlil qilish zarur. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, madaniy xilma-xillikni saqlab qolish bilan birga, zamonaviy global identiklikni shakllantirish uchun madaniyatlararo muloqot, tolerantlik, ochiq tafakkur va refleksiv o'zlikni rivojlantirish zarur. Bu jarayonda media madaniyat vositasi sifatida ijobiy kuchga ega bo'lishi uchun insonda tanqidiy tafakkur, axloqiy mas'uliyat va ma'naviy o'zlikni anglash qobiliyati

mustahkam bo'lishi lozim. Shunday yondashuvgina global axborot muhitida insonning madaniy o'zligini yo'qotmasdan, uni yangi zamonaviy shaklda rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, global mediamakon sharoitida madaniy xilma-xillik va yangi identiklikni shakllantirish jarayoni murakkab, ko'p qirrali va ziddiyatli hodisa hisoblanadi. U nafaqat texnologik yoki kommunikativ o'zgarishlarni, balki insoniyat tafakkuri, ong va ma'naviyatidagi chuqur falsafiy siljishlarni ham o'z ichiga oladi. Mediamakon orqali inson o'z o'zligini anglash, madaniy o'zlikni qayta talqin qilish va global miqyosdagi ijtimoiy munosabatlarda o'z rolini belgilab olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon madaniy birxillashuv, milliy qadriyatlarning yemirilishi va identiklik inqirozi xavfini ham keltirib chiqarmoqda.

Shu sababli global mediamakonni boshqarish va undan ma'naviy-ma'rifiy maqsadlarda foydalanish dolzarb vazifa hisoblanadi. Madaniy xilma-xillikni saqlab qolishning eng muhim sharti – bu insonning axborot oqimi sharoitida o'z o'zligini anglash, tanqidiy fikrlash va ma'naviy mustaqillikni saqlab qolishidir. Yangi global identiklik esa milliy va umuminsiy qadriyatlarning uyg'unlashuvi, madaniyatlararo muloqotning kuchayishi hamda insonning o'zini global hamjamiyat a'zosi sifatida anglash jarayonida shakllanadi. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, global mediamakon insoniyatning o'zaro tushunish, hamkorlik va umumiy axloqiy maydon yaratish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, bu jarayonni ma'naviy-axloqiy nazorat va milliy madaniyatni rivojlantirish strategiyalari bilan uyg'unlashtirish zarur. Madaniy xilma-xillik va global identiklik bir-birini inkor etuvchi emas, balki to'ldiruvchi jarayonlar sifatida ko'rilmog'i kerak. Shunday yondashuvgina global mediamakon sharoitida insoniyatning madaniy va ma'naviy barqarorligini ta'minlay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маклюэн М. Г. Понимание медиа: внешние расширения человека. — Москва: Академический проект, 2003. — 464 с.
2. Тоффлер Э. Третья волна. — Москва: АСТ, 2002. — 560 с.
3. Бауман З. Текучая современность. — Санкт-Петербург: Питер, 2008. — 240 с.
4. Гидденс Э. Последствия модерна. — Москва: Праксис, 2011. — 352 с.
5. Аппадурай А. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. — Minneapolis: University of Minnesota Press, 1996. — 229 p.